

Joriy yil 6 oy davomida Fanlar akademiyasiga fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarga bag'ishlangan brifing o'tkazildi

Bugun, 5-avgust kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida joriy yil 6 oy davomida Fanlar akademiyasiga fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar bo'yicha brifing o'tkazildi.

Unda fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar va ulardan kelgan ba'zi muhim savollarga javob berib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga joriy yilning birinchi yarmida jismoniy va yuridik shaxslardan **jami 174 ta murojaat kelib tushgan** bo'lib shundan:

- 77 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasidan;
- 24 tasi og'zaki;
- 73 tasi yozma murojaatlarni tashkil etadi, ularni o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi va ijro etilishi ta'minlangan.

1. **O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlariga doktorantura va tayanch doktoranturada o'qish uchun hujjatlarni qabul qilish qachon boshlanadi?**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'lidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori balan tasdiqlangan "Oliy ta'lidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom"ning 15-bandiga muvofiq:

Ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalar har yili 1-sentyabrdan kechikmasdan ommaviy axborot vositalarida qabul kvotalariga muvofiq hujjatlarni qabul qilish muddatlarini, talab qilinadigan hujjatlar, topshiriladigan imtihonlar ro'yxatini va qabul kvotasi miqdorini ko'rsatgan holda tayanch doktorantura va doktoranturada o'qish uchun talabgorlarning hujjatlarini qabul qilish to'g'risida e'lon beradi.

Hujjatlar ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari qabul komissiyasi tomonidan 15-sentyabrdan 15-oktyabrgacha bo'lgan davrda yagona elektron tizim orqali qabul qilinadi.

2. **Tayanch doktorantura o'qishga kirish istagida bo'lgan nomzodlarga talablar qanday qanday?**

"Oliy ta'lidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom"ning 16-bandiga muvofiq:

Tayanch doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

Magistr darajasiga yoxud klinik ordinaturani tugatgan (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lganlar;

Falsafa doktori (Rhd) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'limgan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariiga ega bo'lganlar.

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Ariza;

Qisqacha biografik ma'lumotnoma;

Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);

Oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinaturani tugatganlik (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

Shu o'rinda doktoranturada o'qishga talabgorlardan quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

Fan nomzodi yoki falsafa doktori (Phd) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;

Fan nomzodi yoki falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

doktoranturada o'qishga talabgorlar ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Ariza;

Qisqacha biografik ma'lumotnoma;

Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);

Oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (Phd) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;

Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;

Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

3. *Falsafa doktori (Phd) yoki fan doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini o'qish muddati tamom bo'lishidan oldin himoya qilganlarga qanday rag'batlantirish mavjud?*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 696-sonli qarorining 16-bandiga muvofiq falsafa doktori (Phd) yoki fan doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini o'qish muddati tamom bo'lishidan oldin himoya qilganlarga, shuningdek, ularning ilmiy rahbarlari va konsulantlariga muassasa rahbarining buyrug'i bilan o'qish muddatining qolgan davri (muddati) uchun nazarda tutilgan tegishlicha stipendiyaning hamda doktorant bilan olib borilgan ish uchun to'loving jami miqdori hajmida tegishli diplom taqdim etilgan kundan boshlab ko'pi bilan 20 kun muddatda mukofot to'lanadi.

Bunda, mazkur bandda nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining Respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida tegishli vazirlik va idoralarga ajratiladigan mablag'lar hisobidan, zarurat bo'lganda asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti parametrlari doirasida amalga oshiriladi.